Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · "Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini t... DOI: 10.5281/zenodo.24320618

ta'minlashning ustivor yo'nalishlari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH

Bakayev Xurshid Maxmudovich
Hamkorbank OATB Buxoro filialining "Tuqimachi" bank xizmatlari ofisi boshligi, Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining mustaqil izlanuvchisi, E-mail: bakaev.xurshid@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu tezisda uzoq muddatli aktivlar auditini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish haqida so'z yuritiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi ilg'or tajribalarning asosiy jihatlarini aniqlash va ulardan buxgalteriya va audit faoliaytida foydalanish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Uzoq muddatli aktivlar hisobini xalqaro standartlar talabi bo'yicha tashkil etish mavzusi, kompaniyalar va tashkilotlar uchun moliyaviy shaffoflikni va global raqobatbardoshlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada uzoq muddatli aktivlarning xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga (IFRS) muvofiq hisobini yuritishning asosiy prinsiplari va metodologiyalarini ko'rib chiqadi.

Kalit so'zlar: Aktivlar, uzoq muddatli aktivlar, audit, uzoq muddatli aktivlar auditi, xalqaro standartlar, auditining xalqaro standartlari, Xalqaro Moliyaviy Hisobot Standartlari (IFRS), Xalqaro Hisob-kitob Standartlari (IAS), auditorlik xizmatlari.

Hozirgi global iqtisodiy muhitda kompaniyalar va tashkilotlar, o'z faoliyatlarida samaradorlik va shaffoflikni ta'minlash maqsadida xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga moslashishga majbur. Uzoq muddatli aktivlar, xususan, ko'p hollarda bu standartlarning markaziy o'rnini egallaydi, chunki ular moliyaviy hisobotning sifatini va kompaniyaning moliyaviy holatini baholashda muhim rol o'ynaydi. Uzoq muddatli aktivlar – bu iqtisodiy foyda keltiruvchi va bir necha yil davomida foydalanilishi mo'ljallangan mol-mulk, asbob-uskunalar, binolar, yer uchastkalari va boshqa aktivlarni o'z ichiga oladi. Bularni to'g'ri va aniq hisobga olish kompaniyaning moliyaviy holati va kelajakdagi strategik qarorlar qabul qilishida katta ahamiyatga ega.

O'zbekistonda keyingi yillarda auditorlik faoliyatining nufuzini oshirish hamda auditorlik tashkilotlarining xalqaro tarmoqlarda a'zoligini kengaytirish borasida jadal islohotlar olib borilmoqda. Biroq hali-hanuz mamlakatimizda auditorlik faoliyatini rivojlantirish borasida kamchiliklar uchramoqda. Xususan, auditorlik tashkilotlari ishi sifatini tashqi nazorat qilishning samarali tizimi mavjud emas, bu litsenziyalovchi organning huquqiy ta'sir choralari cheklangani sharoitida sifatsiz auditorlik xizmatlarini ko'rsatish hollariga va auditorlarning insofsiz xatti-harakatlariga nisbatan tezkor chora ko'rish imkonini bermayotgan muammolarning mavjudligi auditorlik tashkilotlari faoliyatini xalqaro talablar asosida yo'lga qo'yishda muayyn qiyinchiliklarni yuzaga keltirmoqda. Mamlakatimizda auditorlik tashkilotlari va auditorlar ishi sifati nazoratini amalga oshirishda huquqiy, uslubiy va amaliy muammolarning mavjudligi mazkur mavzu yuzasidan tadqiqotlar olib borishni taqozo etmoqda.

Xalqaro buxgalterlar federatsiyasi (XBF) xalqaro darajada e'tirof etilgan standartlarni ishlab chiqadi va amalga kiritib keladi. Bunday choralar investorlar va boshqa manfaatdor taraflar tomonidan qabul qilinadigan qarorlar uchun asos boladigan ma'lumotlarning ishonchlilik darajasini oshirish imkonini beradi.

Shu bois, XBF standartlarni o'rnatadigan quyidagi to'rtta mustaqil kengash faoliyatini qollab-quvvatlaydi: Xalqaro audit va ishonch bildirish standartlari Kengashi (IAASB), Buxgalterlik ta'limining xalqaro standartlari bo'yicha Kengash (IAESB), Buxgalterlar uchun xalqaro axloq standartlari bo'yicha Kengash (IESBA) va Davlat sektoridagi buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari bo'yicha Kengash (IPSASB).

Published: 23.12.2024

Cite this article: Bakayev Xurshid Maxmudovich (2024). Xalqaro standartlar asosida uzoq muddatli aktivlar auditini takomillashtirish. Emro Science and Education, 1(4). https://doi.org/10.5281/zenodo.24320618


© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

Hisob va audit standartlarini o‘rnatadigan mustaqil kengashlar jamiyat manfaatlarida yuqori sifatli, ochiq va samarali ishlab chiqilishini ta’minlaydigan, aniq belgilangan, tegishli jarayonga rioya qiladilar. Bu standartlarni belgilash boucha mustaqil kengashlar jamiyat manfaatlarini ifoda etadigan keng jamoatchilik vakillari hisoblanadigan Maslahat guruhlariga egadirlar. Mazkur kengashlar quyidagi hujjatlarni chop etadilar:

- Professional buxgalterlar uchun axloq kodeksi;
- Audit, ko‘rib chiqish, ishonch bildirish bo‘yicha boshqa xizmatlar va turdosh xizmatlarning xalqaro standartlari;
- Sifat nazorati boʻyicha xalqaro standart;
- Ta’limning xalqaro standartlari;
- Davlat sektoridagi buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari.

XBF tegishli ko‘rsatmalami ishlab chiqadi va professional buxgalterlar biznesda ishlashi uchun zarur bolgan resurslarni tarqatishga ko‘maklashadi. Shuningdek, u kichik va o‘rta korxonalar hamda kichik va o‘rta biznesda band bolgan buxgalter-amaliyotchilar (SMP)ga va jahon iqtisodiyotida muhim rol o‘ynay digan, rivojlanayotgan mamlakatlarga tegishli bolgan masalalami yechish bilan shug‘ullanadigan guruhlami ham tashkil etadi.

Xalqaro va milliy standartlari bo‘yicha uzoq muddatli aktivlarni hisobga olish qoidalari ko‘p jihatdan farq qiladi. Mavjud tafovutlarning ba’zilari faqat texnik xususiyatga ega ammo buxgalteriya hisobi va hisobotdagi ma'lumotlarni oshkor qilish jarayoniga ta'sir ko‘rsatadigan tubdan sezilarli farqlar mavjud. Ularni quyidagi rasmda ko‘rishimiz mumkin (1-rasm):



1-rasm. Uzoq muddatli aktivlarni hisobga olishda milliy buxgalteriya standartlari va xalqaro moliyaviy hisobot standartlari o‘rtasidagi farqlar[55]

Yuqoridagi rasmda keltirilgan ma’lumotlarga asoslanib shuni aytishimiz mumkinki, uzoq muddatli aktivlarni tan olish ularning asl qiymatini aniqlashdan boshlanadi. Buxgalteriya hisobining milliy standartlariga ko‘ra, aktiv buxgalteriya hisobiga qabul qilingan paytda uni baholash tannarxi bo‘yicha amalga oshiriladi. Bunday holda, xarajat ob'ektni sotib olish yoki qurish paytida tashkilot tomonidan qilingan barcha xarajatlarni o‘z ichiga oladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, uzoq muddatli aktivlar auditini rivojlantirish hamda auditorlik faoliyatini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish uchun auditorlik standartlari asosida auditorlarni tayyorlash bo‘yicha o‘quv dasturlari va auditorlik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqi uchun imtihonlarni o‘tkazish uchun yagona talablar shakllantirilishi kerak. Standartlar auditning umumiy yondashuvini, auditorlik tekshiruvi

[55] Internetdagi manbalar va ilmiy adabiyotlardagi ma’lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi

ko‘lamini, auditorlarning hisobot turlarini, metodologiya masalalarini, audit o‘tkaziladigan sharoitlardan qat'i nazar, ushbu kasbning barcha vakillari amal qilishi kerak bo‘lgan asosiy printsiplarni belgilaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

12. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 11-apreldagi “O‘zbekiston respublikasi hududida qo‘llash uchun auditning xalqaro standartlarini tan olish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 171-sonli Qarori
13. Meliyev I.I. Mustaqil davlatlar hamdo‘stligiga a’zo davlatlarda auditning xalqaro standartlarini qo‘llash xususiyatlari // “Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali. 2024-yil, yanvar. № 1-son. 220-226.
14. Бунина А.Ю., Павлюченко Т.Н. Особенности отражения операций с внеоборотными активами в соответствии с положениями международных и российских стандартов // Вестник Воронежского государственного аграрного университета. – 2020. – № 2 (65). 188-195 с.
15. Логвинова Т.И. Методический инструментарий риск-ориентированного аудита учётной информации об основных средствах в сельском хозяйстве / Т.И. Логвинова, Е.Ю. Дьяченко // Вестник Воронежского государственного аграрного университета. – 2018. – Т. 11, № 2 (57). – С. 200–207.

OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHNING NAZARIY JIHATLARI

Ismoilova Gulchiroy Tolliboy qizi
Oriental universiteti, PhD.
rguli617@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur tadqiqotda oziq-ovqat xavsizligini ta’minlashning ilmiy-nazariy asoslari haqida atroflicha tushuncha berilgan hamda aholini oziq-ovqat bilan ta’minlash muammolarini tizimli o‘rganishning ilk davridan boshlab, hozirgi zamon olimlari tomonidan ilgari surilayotgan nazariyalar talqini hamda xorijiy davlatlarning mazkur sohadagi tajribalari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: oziq-ovqat xavfsizligi, iqtisodiyot, globallashuv, sanoat, oziq-ovqat mahsulotlari, ishlab chiqarish, zaxira, narx, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik, eksport, import.

So‘nggi yillarda respublikamizda oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish, sohaga investitsiya mablag‘larini jalb qilish va eksport faoliyatini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 6,1 milliard AQSh dollaridan va ularning yillik eksporti hajmi 510 million AQSh dollaridan oshdi. Shuningdek, oxirgi uch yilda import o‘rnini bosuvchi 75 turdagi 289,9 million AQSh dollari miqdoridagi oziq-ovqat sanoati mahsulotlari ishlab chiqarilishi ta’minlanib, import hajmi 7,4 foizga kamaydi. Respublika sanoatida oziq-ovqat sanoati ulushi 14 foizdan 16,6 foizga oshdi[56].

Bu kabi yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlariga erishish, hukumatimiz tomonidan olib borilayotgan oqilona oziq-ovqat xavfsizligi siyosati hamda soha negizini tashkil etuvchi normativ-huquqiy bazani mustahkamlab borilishida deyish mumkin. Xususan, O‘zbekiston Respublikasida oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatini boshqarishda 1997-yil 30-avgustda qabul qilingan “Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligi to‘g‘risida”dagi qonun, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil

[56]O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Stastistika milliy agentligi ma’lumoti.